

.....

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY ADABIY-TANQIDIY IJODINING O‘RGANILISHI

Muhabbat Po‘latova

Alfraganus universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning adabiy-tanqidiy merosi hamda uning o‘zbek adabiyoti va jadidchilik harakati taraqqiyotidagi o‘rni tahlil etilgan. Muallif Behbudiyning ma‘rifatparvarlik g‘oyalari, milliy uyg‘onish jarayonidagi faoliyati hamda dramaturgiya va adabiy tanqid sohalariga qo‘shgan hissasini yoritadi. Shuningdek, uning adabiy-tanqidiy qarashlari jamiyat taraqqiyoti, milliy ong, ma‘naviyat va madaniyat rivoji bilan uzviy bog‘liqligi ilmiy jihatdan asoslanadi. Behbudiyning ijodining jadid adabiyoti shakllanishiga ko‘rsatgan ta‘siri, uning zamondosh ijodkorlar faoliyatidagi o‘rni hamda adabiy-estetik qarashlarining bugungi ilmiy tadqiqotlardagi ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada adibning adabiy-tanqidiy asarlarini chuqur o‘rganish zarurati asoslanib, ularning o‘zbek adabiyotshunosligi rivojida ilmiy va ma‘naviy ahamiyati xulosalanadi.

Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudiyning, jadidchilik, adabiy tanqid, jadid adabiyoti, dramaturgiya, ma‘rifatparvarlik, milliy uyg‘onish, adabiy-estetik qarashlar, Turkiston jadidlari, o‘zbek adabiyotshunosligi, teatr, milliy ma‘naviyat.

O‘tmishni bilmasdan turib kelajak haqida fikr yuritish qiyin. Abdulla Qodiriy aytganidek, “Moziyga qaytib ish ko‘rish xayrlik, deydilar” [1]. Bir tomondan, milliy qadriyatlarimizni, qadimiy an‘analalarimizni tiklash, ikkinchi tomondan badiiy tafakkur taraqqiyoti tarixida muhim iz qoldirgan buyuk siymolar ijodiy faoliyatini o‘rganishi hech qachon hozirgi paytdagiday muhim va dolzarb bo‘lgan emas.

Bularning hammasi milliy istiqlol mafkurasini yaratishda ham alohida va muhim o‘rin tutishini ta‘kidlash joiz. Bunda Mahmudxo‘ja Behbudiyning singari favqulodda iste‘dod sohiblarining ijodini, shu jumladan adabiy – tanqidiy qarashlarini o‘rganish ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning murakkab davrda yashab ijod etdi va faoliyat ko‘rsadi. Ammo, u ko‘p ta‘qiblar, kurashlar va zo‘ravonliklar davrida ijtimoiy, ilmiy, adabiy jarayonda o‘zining munosib izini qoldirdi.

XX asrning boshlarida Turkiston jadidchiligiga asos soldi, shuning uchun ham u Turkiston jadidlarining “otasi” degan nom oldi. F.Xo‘jayevning haqli ta’kidlashiga ko‘ra: “Siyosiy, ijtimoiy xizmat ham har xil ma’lumot jihatidan o‘shal vaqtdagi Turkiston jadidlaridan hech kim uning bilan teng bo‘la olmasa kerak” [2].

Mahmudxo‘ja Behbudiy yaratgan barcha asarlar xalq va jamiyat taqdiriga, ular hayotida tub o‘zgarishlar yuzaga kelishiga qaratilgan. Behbudiy bu maqsadni amalga oshirish uchun ta’bir joiz bo‘lsa, ham nazariyotchi ham amaliyotchi sifatida ko‘zga

tashlanadi. Ayni paytda, jamiyat va xalq hayotidagi tub burilishlar, yangi ijobiy o‘zgarishlar iqtisodiy va madaniy ravnaq bilan chambarchas aloqalantiriladi. Xususan, millatimizning o‘sha davridagi holatidan kelib chiqib, agar iqtisodiy o‘zgarishlar va yangilanishlar yuzaga kelmasa, madaniy hayotdagi sifat o‘zgarishlarning jamiyatdagi ma’naviy potensialni yuzaga chiqarish omiliga chambarchas bog‘liq ekanligi ham o‘z o‘rnida ta’kidlanadi.

Turkiston jadid dramaturgiyasining, adabiy tanqidchiligining paydo bo‘lishi, shakllanishi va rivojlanishida ham Mahmudxo‘ja Behbudiyning xizmati nihoyatda katta. Behbudiy boshliq jadidlar o‘zbek xalqini ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy yuksaklikka elitishga qaratilgan muqaddas dasturni yaratadilar.

Hoji Muin Shukrullo, Abdulla Badriy, Husayn Jovid, Abdurauf Fitrat, Miyon Buzrug, G‘ulom Zafariy, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Qudratullo Nusratullo o‘g‘li va boshqa ko‘pgina dramaturglarimiz asarlarining yozilishiga ham dastlab Mahmudxo‘ja Behbudiyning ijodi turtki berdi. Biroq, Behbudiy ko‘rsatgan ana shu o‘lkan ta’sirning ilmiy jihatlari jiddiy va to‘laqonli ravishda o‘rganilgan emas. Ayni paytda mazkur davrdagi o‘zbek teatri va adabiy tanqidchilikning shakllanishi va taraqqiyotini ham Mahmudxo‘ja Behbudiy ijodisiz tasavvur etish qiyin. Shuning uchun ham ko‘pgina jadid ijodkorlarimiz bilan bir qatorda, Mahmudxo‘ja Behbudiyning adabiy – tanqidiy merosini maxsus o‘rganilmog‘i, o‘zining to‘liq ilmiy bahosini olmog‘i maqsadga muvofiq.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning ijodi Turkiston xalqi madaniyati tarixida nihoyatda katta voqea bo‘ldi. Uning yozganida: “Moziy – istiqbolning torozisidur” [3]. Bugun uning ijodi xalqning mukammal mulkiga aylanib bormoqda. Tarix o‘z davrining ijtimoiy – siyosiy, ma’naviy dunyosini ko‘rsatuvchi ko‘zgudir. Behbudiy ijodi jamiyatni

tutib turgan qonun – qoidlar, adabiy oqim va qarashlar, zamondoshlar muammolarini o‘z ichiga qamrab oladi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, mahmudxo‘ja Behbudiyning adabiy – tanqidiy ijodi o‘zining to‘laqonli ilmiy bahosini olganicha yo‘q. Hozirgi paytga kelib, Behbudiyning adabiy – tanqidiy ijodiga doir materiallarning mavjud bo‘lishiga qaramasdan keng va to‘liq tadqiqi yo‘qligi, ikkinchidan mavjud materiallarning talqinlari yo‘qligi unga ilmiy izarishlarni olib borishni taqozo etadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning adabiy – tanqidiy asarlari orasida “”Munozara” haqida”, “Tiyotr nadur”, “Tanqid – saralamoqdur”, “Ismoilbek hazratlari ila suhbat”, “Ismoilbek hazratlari”, “Tiyotru, musiqiy, she’r”, “Tiyotr”, “Til masalasi”, “ “Sart” so‘zi majhuldur ” [4] kabi manbalarining tadqiq va tahlil etilishi dolzar bo‘lgan masalalardan sanaladi.

Alohida ta’kidlash lozimki, Behbudiyning ijodiga doir ma’lumotlar adib tirikligi davridayoq e’lon qilingan edi. Bu holat Behbudiyning madaniyatimiz tarixidagi tutgan o‘rni bilan bog‘liq. Mavjud materiallar orasida ayniqsa, Hoji Muin Shukrullo, Abdulhamid Azamat, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Sadriddin Ayniy, Laziz Azizzoda, Abdusalom Azimiy, Abduqodir Shakuriy, Vadud Mahmudlar [5] qoldirgan ma’lumotlar uning adabiy – tanqidiy ijodini baholashda ham birinchi manba sifatida qimmatlidir.

Mash’um qatag‘on yillarida amal qilgan dahshatli jarayon Mahmudxo‘ja Behbudiyning ijodini ham chetlab o‘tgani yo‘q. Ayni paytlarda Behbudiyning ijodiga berilgan baho o‘sha jarayonlarning kuchli ta’siri ostida yuzaga kelganligini esdan chiqarmaslik kerak.

Xulosa qilib aytish kerakki, biz Behbudiyning adabiy- tanqidiy ijodiga bildirilgan munosabatlarning kamligidan kelib chiqib, adib ijodining ushu yunalishiga alohida e’tibor qaratish va tadqiq qilish lozim degan xulosaga keldik. Bizning maqsadimiz Behbudiyning adabiy-tanqidiy ijodini tahlil va talqin qilish ishning asosiy maqsadini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qodiriy A. O‘tgan kunlar. –Toshkent: O‘qituvchi, 1980. – B.3.
2. Xo‘jayev F. Buxoro inqibobining tarixiga materiallar. –Samarqand-Toshkent:

O‘zbekiston Davlat nashriyoti, 1926. –B. 7.

3. Behbudiy M. Tahsil oyi. – Samarqand: Samarqand, 1913. 3-sentyabr.

4. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Ikkinchi jild.3-nashri. –Toshkent: Akademyanashr, 2025. – V 3-44.

5. Avazov N. Mahmudxo‘ja Behbudiyning ijodiy merosi (manbalar). Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasi uchun yozilgan dissertatsiya. –Toshkent, 1994.

6. Azimboyevna, Y. S. (2026). Edgar Allan Poe va uning adabiy uslubining zamonaviy amerika ilmiy-fantastik adabiyotiga taʼsiri. Alfraganus" Xalqaro Ilmiy Jurnali, 3(6), 56-66.

7. Azimboyevna, Y. S. (2025). Literary Interpretation Of Motifs In Ray Bradbury's Works. International Journal Of Advanced Research In Education, Technology And Management, 4(3), 43-51.

8. Azimboyevna, Y. S. (2024). Jahon va o'zbek fantastik asarlarida takroriy motiv tushunchasi va uning badiiy talqini. Research Focus, 3(Special Issue 1), 19-23.

9. Turaeva, U. (2021). Comparative study of uzbek and english legal terms legal linguistics: historical foundations, basic concepts and aspects. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.6).

10. Umida, T. Characteristics, Methods and Challenges of Translating Law Terminology. JournalNX, 6(11), 312-316.

11. Turaeva, U., Juraev, M., Urinov, N., Khodjayeva, N., & Ismailov, E. (2025). Investigation of cutting tool and workpiece positioning precision as a critical factor in enhancing machining accuracy. In E3S Web of Conferences (Vol. 627, p. 04002). EDP Sciences.

12. Xujaev, M. (2020). Mahmudkhuja Behbudiy as a leader of jadid reforms. The Light of Islam, 3, 39-47.